

SHIMOLIY O'ZBEKISTON O'RGIMCHAKLAR (ARANEI) TURKUMI TAKSONOMIK TARKIBI

Toxirova O'g'iljon Zohid qizi

Biologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Shimoliy Xorazm hududida uchraydigan o'rgimchaklar faunasi va tarqalish xususiyatlariga doir ma'lumotlar tajriba tahlillari orqali izohlab berilgan.

Kalit so'zlar: Xorazm vohasi, Aranei, o'rgimchak, tabiiy biosenozlar, agrotsenoz kolleksiya, Lycosidae, Agelenidae, Araneidae, Pholcidae, Salticidae, pedipalp, Sparassidae, biotop, Jakkar koefitsenti

Yer yuzida O'rgimchaklar turkumi faunasi o'zining xilma-xilligi bilan boshqa jonzotlardan tubdan farq qiladi. Hozirgi kunda o'rgimchaklar faunasi olimlar tomonidan jadallik bilan o'rganilmoqda. Xususan, Jahon o'rgimchaklar katalogi (<https://wsc.nmbe.ch/statistics/>) ma'lumotlariga ko'ra, turkumning hozirga qadar 138 oila, 4470 avlod, 53244 turi qayd etilgan [8]. Morfologik jihatdan, kattaligi 2 mmdan 10 smgacha yetishi mumkin. Tropik mintaqalarda esa ularning gigant turlari ham tarqalgan [1,3].

O'zbekiston araxnofaunasiga oid ma'lumotlar 1940-1980 yillarda A.Kronoberg, D. Xaritonov tomonidan aniqlangan [3,4,6]. 1980-1990 yillarda N.Ergashev O'zbekiston zaharli o'rgimchaklarini taksonomik tahlil qilgan [1]. Olim ishlarini qoraqurtning zahri tarkibi va tarqalishiga oid ma'lumotlar olishga bag'ishlagan. Shimoliy Xorazm araxnofaunasi bugungi kunga qadar boshqa hududlarga nisbatan juda kam o'rganilgan. Xususan, shu kungacha O'zbekiston hududidagi Aranei turkumi taksonomik jihatdan to'liq o'rganilmagan. Shuning uchun ham ularni taksonomik tahlil qilish O'zbekiston araxnologik tadqiqotlar bazasini boyitishga katta hissa qo'shadi.

Material va tadqiqot usullari: O'rgimchaklarni tutish uchun mahsus entomologik to'rlar, stakanlar, ularni fiksatsiya qilish uchun 96% li spirt eritmasi, yig'ish uchun shisha flakonlar, fotokameralar. Turlarni identifikatsiya qilishda mavjud turlar morfologik belgilarini o'zaro solishtirish usulidan foydalanildi [9]. Biotoplarda yig'ilgan o'rgimchaklar turlari o'xshashligi Jakkar koefitsenti asosida o'rganildi [5,7].

Tadqiqot uchun asosiy materiallar 2021-2023-yillar mobaynida Xorazm vohasining bir-biriga o'xshamagan xilma-xil biotoplar, agrotsenozlar va turar joylardan to'plandi.

Ma'lumki, O'zbekistonning shimoliy hududlaridan bo'lmish Xorazm vohasi o'rgimchaklar faunasi o'rganilmagan. Shuning uchun araneofaunani o'rganishda, har xil biotoplarda yashashga moslashgan iloji boricha ko'proq ob'yektlar to'plashga harakat qilindi. Tadqiqot ishlari G'ozovot-41°57'64.89" shim.keng, 60°17'45.73" sharq.uz. Bo'ston - 41°50'14.11" shim.keng, 60°53'25.77" sharq.uz. Tollik to'qay - 41°57'9.95" shim.keng, 60°29'3.28" sharq.uz. Sulton Uvays tog' tizmasi - 42°2'26.99" shim.keng, 60°40'58.04"

sharq.uz. Achchiqko'l – 41°66'39.94" shim.keng, 60°33'44.21" sharq.uz. Beshmergan – 41°67'22.85" shim.keng, 60°32'51.10" sharq.uz. hududlarida olib borildi. To'plangan materiallar asosida kolleksiya tayyorlanib, morfologik tahlil qilindi. Turlarni aniqlashda turli aniqlagich va xalqaro nashrlardan foydalanilgan (Тыщенко,1971; Ажеганова,1968; Logunov, Gromov,2012; Марусик,2011; Andreeva,1975;). Turkumning sistematikasi, avlod va turlarning joylashuvi hamda lotincha nomlar World Spider Catalog (WSC) – Xalqaro o'rgimchaklar katalogi ma'lumotlar bazasi hamda Spiders of Europe (<https://araneae.nmbe.ch/>) sayti ma'lumotlaridan foydalanilganligi bayon etilgan va sayt manzillari ham ko'rsatib o'tildi. Quyida Xorazm vohasi hududlarida qayd etilgan o'rgimchaklar tur tarkibi, aniqlangan hududlari va taksonomik o'rinlari ko'rsatib o'tilgan.

LYCOSIDAE

1. *Lycosa singoriensis* (Laxmann,1770) Ellikqal'a Bo'ston: 2 ta nusxada 17.03.2022; Sulton Uvays tog' tizmasi: 2 ta nusxada 12.04.2022. Achchiqko'l: 2 ta nusxada 15.05.2023.

2. *Xerolycosa miniata* (C.L.Koch,1834) Shomoxulum: 3 ta nusxada 07.03.2022, G'ozovot : 2 ta nusxada 17.03.2022, Sulton Uvays tog' tizmasi: 3 ta nusxada 12.04.2022.

3. *Geolycosa vultuosa* (C.L.Koch,1838) Tollik to'qay: 3 ta nusxada 23.03.2023, Beshmergan: 2 ta nusxada 26.03.2023.

AGELENIDAE

4. *Agelena labyrinthica* (Clerck,1757) Achchiqko'l: 1 ta nusxada 23.08.2022. Beshmergan; 1 ta nusxada.01.09.2022. Shomoxulum; 1 ta nusxada.13.10.2022.

5. *Araneus angulatus* (Clerck,1757) Achchiqko'l: 2 ta nusxada 28.06.2022. Tollik to'qay: 3 ta nusxada 2.07.2022 Qoramoz: 4 ta nusxada.01.09.2022. G'ozovot: 3 ta nusxada.13.10.2022

6. *Araneus diadematus* (Clerck,1757) Achchiqko'l: 5 ta nusxada 28.06.2022, Qaramoz: 5 ta nusxada.01.09.2022, Tollik to'qay: 4 ta nusxada.13.10.2022.

7. *Neoscona arabesca* (Walckenaer,1841) G'ozovot: 1 ta nusxada 26.05.2022, Beshmergan: 1 ta nusxada.15.08.2022, Tollik to'qay: 4 ta nusxada.13.10.2022.

PHOLCIDAE

8. *Pholcus phalangioides* (Fussli,1775) G'ozovot 3 ta nusxada 26.05.2022, Beshmergan: 7 ta nusxada.15.08.2022, Tollik to'qay: 5 ta nusxada.13.10.2022, Sulton Uvays tog' tizmasi: 5 nusxada 13.10.2022.

9. *Pholcus ponticus* (Thorell, 1875) Chiqirchi: 2 ta nusxada. 12.04.2022, Beshmergan: 4 ta nusxada. 15.08.2022.

10. *Artema transcaspica* (Spassky,1934) Beshmergan 3 ta nusxada.1.06.2022, G'ozovot: 2 ta nusxada.05.06.2022, Achchiqko'l: 1 ta nusxada 17.06.2022.

SALTICIDAE

11. *Asianellus festivus* (Koch,1834) Chiqirchi 3 ta nusxada. 12.04.2022, Beshmergan: 5 ta nusxada.15.08.2022, Tollik to'qay: 3 ta nusxada 17.06.2022.

12. *Phlegma fasciata* (Hahn,1826) Chiqirchi: 3 ta nusxada.12.04.2022, Beshmergan: 4 ta nusxada.15.08.2022, Ellikqal'a: 1 ta nusxada 17.06.2022.

ARANEIDAE

13. *Argiope lobata* (Pallas,1772) Qaramazi: 1 ta nusxada.12.04.2022, Achchiqko'l: 1 ta nusxada 17.06.2022.

14. *Argiope bruennichi* (Scopoli,1772) Achchiqko'l: 2 ta nusxada 03.05.2022, Beshmergan: 1 ta nusxada;Tollik to'qay:1 ta nusxada 19.06.2022.

SPARASSIDAE

15. *Olios sericeus* (Kroneberg,1875) Achchiqko'l: 1 ta nusxada 03.05.2022, Beshmergan: 2 ta nusxada 19.06.2022,Tollik to'qay:2 ta nusxada 12.07.2022.

GNAPHOSIDAE

16. *Zelotes subteranneus* (Koch,1833) Beshmergan:1 ta nusxada 19.08.2022, Achchiqko'l: 1 ta nusxada 03.05.2022.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Эргашев Н.Э Экология ядовитых пауков Узбекистана. Ташкент, 1990. - 188 с.
2. Михайлов К.Г. Общая Арахнология.Краткий курс. Часть 1.Введение. Малые отряды. Москва, 2011.- 245 с.
- 3.Михайлов К. Г. Общая Арахнология. Краткий курс. Часть 2 .морфология, анатомия, биология. Москва, 2011.- 205 с.
- 4.Alireza Zamani. Soiders of Iran (Sistematics,diversity and distribution). Turku, 2023. - 501 p.
5. Logunov, D. V. A new species of the genus *Pseudicius* Simon 1885 (Araneae: Salticidae) from SW Iran. *Acta Arachnologica*, Tokyo,2007. 56(1): 21–23 p.
- 6.Logunov, D. V. New and poorly known species of Salticidae (Araneae) from Turkey and Iran. *Contributions to Natural History*, 2009. 12: 899–919 p.
- 7.Logunov, D. V. Taxonomic notes on a collection of jumping spiders from Iran (Araneae, Salticidae). *Bulletin of the British Arachnological Society*, 2010. 15(3): 85–90 p.
8. <https://wsc.nmbe.ch/>
9. <https://araneae.nmbe.ch/>